



1. Nuklein kislotalarni birinchi bo'lib qaysi olim kashf etgan?
2. Nuklein kislotalarning qanday xillari bor?
3. DNK hamda RNKning o'xshashlik va farqli tomonlarini tushuntirib bering.

Misollarni bajaring: 1. DNKning o'ng zanjiridagi nukleotidlar ketma-ketligi CTATAGTAA--CAA bo'lsa, chap zanjirdan transkripsiya asosida hosil bo'lgan oqsil fragmentidagi aminokislotalar ketma-ketligini toping.

2. DNK fragmentining bir zanjiridagi nukleotidlar ketma-ketligi: GGTACGATGTCAAGAdan iborat. Bu zanjirda kodlangan oqsilning birlamchi strukturasi toping.



29- §. 4- laboratoriya mashg'uloti

Amilazaning kraxmalga ta'siri

Ishning maqsadi. Amilazaning kraxmalga ta'sirini o'rganish.

Kerakli jihozlar. Probirka, suv, yod, don maysasi.

Amilaza fermenti kraxmalni shakargacha parchalaydi. Amilaza fermenti unayotgan donlarning tarkibida va odam so'lagida ko'p bo'ladi. Shuning uchun ferment shirasini unayotgan don maysalaridan (sumalakni eslang) yoki so'lakdan tayyorlash mumkin. Buning uchun og'izni bir-ikki ho'plam suv bilan yaxshilab chayqaymiz, so'ng bir ho'plam suvni 2–3 daqiqa davomida og'izda ushlab turiladi va bo'sh stakanga solinadi. Shu yo'l bilan tayyorlangan so'lak eritmasi amilaza fermenti shirasi hisoblanadi. Tajriba uchun yana yodning 1 % li va kraxmalning 0,5 % li eritmasi tayyorlanadi.

Ishning borishi. 1. Ikkita quruq probirka olamiz. 2. Birinchi probirkaga 1–2 ml suv va 1–2 ml kraxmal eritmasi quyiladi va yaxshilab aralashtiriladi. Uning ustiga 1 tomchi yod tomiziladi. Ko'k rang hosil bo'ladi. 3. Ikkinchi probirkaga 1–2 ml amilaza fermenti shirasidan va 1–2 ml kraxmal eritmasidan quyamiz va 5 daqiqa o'tgandan keyin 1 tomchi yod tomiziladi. Bunda probirkada ko'k rang emas, balki qizg'ish yoki sariq rang paydo bo'ladi. Bu kraxmalni ferment ta'sirida parchalanganidan darak beradi.